

DOZORLI EPIDEMIOLOGIK NAZORAT TIZIMI ORQALI GRIPP VA O'TKIR RESPIRATOR VIRUSLI INFEKSIYALAR PROFILAKTIKASINI TAKOMILASHTIRISH

Usmanova Zukhra Abdubasitovna

**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-
epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi
Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15123251>**

Dolzarbli: Gripp va o'tkir respirator virusli infeksiyalar dunyo bo'ylab kasallanish va o'limning asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu kasalliklar aholi salomatligiga, shuningdek, iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatib, katta ijtimoiy va iqtisodiy yo'qotishlarga sabab bo'lmoqda. Globallashuv va aholi sonining ko'payishi sharoitida havo tomchilari orqali yuqadigan infeksiyalar hududlar va mamlakatlar o'rtasida tez tarqalmoqda. Bu, ayniqsa, epidemiya yoki pandemiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan viruslarning yangi shtammlariga taalluqlidir. Bundan tashqari, kasallanish statistikasi va klinik ma'lumotlar kabi epidemiologik nazoratning an'anaviy usullari har doim ham kasalliklar tarqalishini tezkor aniqlash va ularga samarali javob berish imkonini bermaydi. Dozorli epidemiologik nazorat yuqumli kasalliklarni barvaqt aniqlash va ularning tarqalishini nazorat qilish uchun zamonaviy metodologiya sifatida epidemiyalarni aniqroq prognozlash, ularning dinamikasini baholash va profilaktika chora-tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish uchun muhim vositadir. Bu kasallikning yangi holatlarini tezkorlik bilan aniqlash, virus mutatsiyalarini kuzatish va emlash profilaktikasini tezkor joriy etish imkonini beradi.

Epidemiologik nazorat tizimini takomillashtirish, kuzatuv monitoringi asosida yangi texnologiyalar va usullarni joriy etish gripp va O'RVI tarqalishini nazorat qilish samaradorligini oshirish, ularning jamoat salomatligiga ta'sirini kamaytirish va yirik epidemiyalarning oldini olish uchun zarur qadam hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Yuqumli kasalliklarni aniqlash, tahlil qilish va ularning tarqalishining oldini olish samaradorligini oshirish uchun kuzatuv epidemiologik nazorati tizimi orqali gripp va o'tkir respirator virusli infeksiyalar profilaktikasi tadbirlarini takomillashtirish.

Materiallar va usullar: Respublikada 2014-2023-yillar davrida gripp va o'tkir respirator virusli infeksiya bilan kasallanish va nazorat ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tizimlashtirish. Statistik va epidemiologik usullar (retrospektiv tavsif tahlili, kasallanishning mavsumiy dinamikasi). Aylanuvchi shtammlarni va ularning epidemik ahamiyatini aniqlash uchun laboratoriya tadqiqotlari (PCR, sekvenatsiya).

Natijalar: 2014-2023 yillar davomida O'zbekistonda umumiy yuqumli kasalliklar soni hamda gripp va O'RVI holatlari ortishi kuzatildi. Eng yuqori ko'rsatkichlar 2022 yilda qayd etilgan. Ushbu davr mobaynida gripp va O'RVIning umumiy yuqumli kasalliklar tarkibidagi ulushi taxminan 42%dan 63%gacha oshgan bo'lib, bu nafas yo'llari orqali yuqadigan o'tkir infeksiyalarning keng tarqalganligini ko'rsatadi. 2023 yilda bu ulushda oz miqdorda pasayish qayd etilgan, bu esa epidemiologik vaziyat barqarorlasha boshlaganidan dalolat berishi mumkin.

Adenovirus, respirator-sintsital virus (RS), bokavirus va metapnevmonovirus kabi boshqa viruslar esa butun kuzatuv davrida barqaror va past darajada saqlanib qolgan. Biroq 2020–2021 yillardan boshlab ayrim viruslar bo'yicha ham mo'tadil o'sish kuzatilmoqda, bu esa laborator tahlillar imkoniyatlarining yaxshilanganini ko'rsatadi.

Dozorli epidemiologik nazoratning gripp turlari bo'yicha tahlil qilinganda 2020–2021 yilda barcha gripp turlarining ko'rsatkichlari keskin kamaygan bo'lib, bu ehtimol pandemiya davrida qo'llangan cheklov choralari va karantinlar bilan bog'liq bo'lgan, ammo 2021–2022 yillarda esa barcha gripp turlarida keskin o'sish kuzatilgan, ayniqsa A(H1N1) va B tipi grippi bo'yicha eng yuqori darajadagi ko'rsatkichlar qayd etilgan. 2022–2023 yillarda esa ko'rsatkichlar pasaygan bo'lsa-da, B turi grippi bo'yicha holatlar yuqoriligicha qolgan.

Xulosa: O'zbekistonda 2014–2023 yillarda olib borilgan epidemiologik tahlillar natijalari grippning boshqa O'RVI turlariga nisbatan yuqori tarqalish ko'rsatkichi va aniq ifodalangan mavsumiy xususiyatlarga ega ekanligini tasdiqladi. Dozorli epidemiologik nazorat, respublikada gripp va o'tkir nafas yo'llari kasalliklariga qarshi ko'rilayotgan chora-tadbirlarni rejalashtirish, aholining epidemiologik xavfsizligini ta'minlash, gripp va o'tkir respirator infeksiyalar bilan aholining ommaviy kasallanish holatlarini oldini olish hamda pandemik salohiyatga ega yangi yuqori patogen virusli infeksiyalarga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) — Global Influenza Programme bo'limi.
2. CDC (Centers for Disease Control and Prevention, AQSh) — gripp monitoringi: <https://www.cdc.gov/flu>
3. Respirator virusli kasalliklar bo'yicha epidemiologik nazoratning operatsion jihatlar, Yevropa, 18 iyul 2022 y. www.ecdc.europa.eu, publications@ecdc.europa.eu
4. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining gripp bo'yicha axborot byulleteni: <https://tokpb.ru/main/informatsionnyy-byulleten-vsemirnnoy-organizatsii-zdravookhraneniya-po-grippu/>
5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 16-fevraldagi 31-sonli buyrug'i: "O'zbekiston Respublikasida o'tkir respirator infeksiyalar bo'yicha dozorlu epidemiologik nazoratni takomillashtirish choralari to'g'risida".
6. WHO. Epidemiological Influenza Surveillance Standards. 2014.